

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo`qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

“O`ZBEK MUSIQA TARIXI”
FANNING O`QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	-	San`at va gumanitar fanlar
Ta`lim sohasi:	210000	-	San`at
Ta`lim yo`nalishi:	60111400	-	Vokal san`ati (an`anaviy xonandalik)

Fan/modul kodi O`MT 1410		O`quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS-Kreditlar 3	
Fan/modul turi Majburiy		Ta`lim tili O`zbek		Haftadagi dars Soatlari 2	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg`ulot- lari (Soat)	Mustaqil Ta`lim (soat)	Kurs ishi	Jami yuklama (soat)
	O`zbek musiqa tarixi	90	60	-	150
I.	Fanning mazmuni - O`zbek musiqa madaniyatig shakllanish va rivojlanish bosqichlari, XX asrda O`zbekiston musiqa san`atining yuksalish bastakorlik an`analari va kompozitorlik ijodining hamda musiqa ta`lim maskanilarining shakllanish va faoliyatining rivoji, teatrlarning barpo etilishi, ularning ijodiy jamoalar faoliyati, san`at namoyondalaring hayoti va ijodibayoni etilgan. Kompozitorlik ijodiyotida yangi oqimlar. Fanning vazifasi - talabalarni o`zbek musiqasi bosib o`tgan tarixiy jarayon, uning umum insoniyat tarixida tutgan o`rni, milliy musiqiy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularga musiqiy-tarixiy bilimlar berish, musiqa san`atining tarixi bilan jamiyat taraqqiyotining bog`liqligini tushuntirish, o`zbek musiqa sini qadimiy davrlarda, temuriylar davridaqay darajada rivojlanganligini, ulug` siymolar va musiqashunoslar nomlarini va ularning musiqa ilmida yaratgan kashfiyotlari hamda uni rivojlantirishdagi hissalarini bilish orqali talabalarda milliy g`urur, qadr-qimmat, ehtirom tuyg`ularini shakllantirish; -talabalarga o`zbek musiqasi madaniyati tarixiy taraqqiyoti, asosiy yo`nalish - lari, janr va shakllari haqida ma`lumot berish, o`zbek klassik musiqasiga xos bo`lgan badiiy ifoda vositalarini va turli xil janrdagi asarlarning mazmunini idrok etishga o`rgatish, o`zbek kompozitorlarining ijodiyoti hamda badiiy jihatdan ahamiyatli asarlari bilan tanishtirish, har bir kompo - zitorning kasbiy mahorat jihatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarini yoritib berish; II. Nazariy qism (ma`ruza mashg`ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: I-MODUL. 1-mavzu. O`rta Osiyoning qadimiy musiqa madaniyati. Ilk o`rta asrlar san`ati.</b></p> <p>O`rta Osiyo xududida o`tkazilgan arxeologik qazilma ishlari, noyob topilmalar xaqida ma`lumot (Afrasiyob, Ayritom, Tuproq qal`, Pajikentning arxeologik yodgorliklari) qadimgi So`g`diyona, Baqtriya, Parfiya va Xorazmning cholg`uchiligi, yakka va ansambl ijrochiligi. O`rta asrning boshlarida katta sotsial va siyosiy harakatlarning sodir bo`lishi, badiiy madaniy yuksalish, o`rta osiyo musiqa madaniyatining boshqa sharq mamlakatlari madaniyati bilan o`zaro aloqasi, Borbadning o`rta asr musiqa ilmi rivojiga qo`shgan hissasi.				

Arablar hukmronligi davri. Ansambl ijrochiligining taraqqiy etishi.

2- mavzu. Somoniylar davrida musiqiy hayot (IX-X asrlar)

Bu davrda musiqiy ilmining rivojlanishi, ajoyib olimlar, shoirlar, musiqachilar, (Abu Nasr Farobiy, Fbu Rayxon Beruniy, Ibn Sino) ning yashab ijod qilishi, saroy musiqachilar ijodida qasida janri. Cholgʻu asboblari cholgʻu ijrochiligining rivojlanishi.

3 -mavzu. Oʻzbek xalqining shakllanishi davrida musiqiy madaniyati (XI-XV asrlar). XI-XV asrlarda Yusuf Xos Xojibning «Qutadgʻu bilig», Faxriddin Arroziyning musiqiy risolalarining yaratilishi. Amur Temur davrida madaniyat va sanʼatning yuksalishi. Torli cholgʻu asboblarda ijrochilikning keng tarqalishi.

4-mavzu. XVI-XIX asrlarda oʻzbek xalq musiqa madaniyati.

XVI-XIX asrlar davrida katta feodal davlatni xonliklarga boʻlinishing musiqaga taʼsiri. Oʻzbek xalqining musiqa madaniyati. Musiqiy folklor.

5 -mavzu. Oʻrta Osiyo musiqiy-nazariy merosi.

Oʻrta Osiyoda musiqiy-nazariy tafakkurning rivojlanishi. Al Farobiy, Ibn Sino, Jomiy va boshqa Oʻrta Osiyo allomalarining ilmiy-musiqiy ijodlari.

6 mavzu. XIX asr ohiri– XX asr boshlarida oʻzbek musiqa madaniyati.

XIX asr ohiri – XX asr boshlarida davrda Oʻrta Osiyoga rus madaniyatining kirib kelishi. Xavaskor toʻgaraklarining tashkil etilishi, birinchi musiqali teatrlar. Ushbu yillarda oʻzbek milliy musiqa merosini yozib olinishi va qayta ishlanishi. Samarqandda maxsus ilmiy - tekshirish institutini ochilishi. Oʻzbek musiqiy asboblari yevropa usulida oʻzlashtirilishi. Professional ijodiy guruhlar bilan bir qatorda xavaskorlik xalq ijodiy guruhlarining rivojlanishidagi ijobiy oʻzgarishlar va birinchi musiqali dramalar.

7- mavzu. Lokal uslublar.

Oʻzbeklokal uslublari: Toshkent- Fargona, Samarqand- Buhoro, Xorazm, Qashqadariy-Surxondariyo.

8-mavzu. Maqom turkumlari. Maqomlarning umumiy asoslari.

Shashmaqom, uning cholgʻu boʻlimi, ashula boʻlimi. Maqomlarning umumiy asoslari Shashmaqom, uning cholgʻu boʻlimi, ashula boʻlimi. Xorazm maqomlari, uning Aytim va chertim yoʻllari. Shashmaqomning Xorazm maqomidan farqi. Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari. Xorazm maqomlari, uning aytim va chertim yoʻllari.

9-mavzu. Oʻzbek kompozitorlari ijodida vokal janri.

Rus kompozitorlar ijodida oʻzbek xalq qoʻshiqlarning qayta ishlanishlari. M.Burxonov va M.Ashrafiy – birinchi oʻzbek kompozitorlar ijodida qoʻshiq va romans janrlari va ularning keyingi rivojlanishi.

10 mavzu. Oʻzbek kompozitorlari ijodida cholgʻ musiqa janri.

Birinchi oʻzbek oratoriya, kantata, xor uchun syuita janrlari.

Simfonik orkestri uchun asarlar –syuita, simfoniya, uvertyura.

Kamer cholgʻu musiqasi janrlari – fortepiano uchun pyesalar, konsert, sonata, prelyudiya va fuga, cholgʻu ansambllar. Oʻzbek xalq cholgʻular orkestri musiqasi.

11-mavzu. O‘zbek kompozitorlari ijodida sahnaviy musiqa janrlari. Musiqali drama, o‘zbek musiqiy teatr shakllanishi.

Birinchi musiqali dramaning xossalari.

O‘zbek kompozitorlari tomonidan mustaqil ravishda yozilgan musiqali dramalar. T.Jalilov, M.Leviyev, Ik.Akbarov, D.Zokirov, S.Jalil, Yu.Rajabiyning musiqali dramalari.

12 - O‘zbek opera janrining shakllanishi. XX asr II- yarmi davridagi opera janrining rivojlanishi M.Ashrafiyning «Dilorom», «Shoir qalbi», S.Yudakovning «Maysaraning ishi», T.Jalilov va B.Brovsinlarning Tohir va Zuxra», U.Musayevning «Mangulik», Ik.Akbarovning «Sug‘d elining qoplani», S.Varelasning «Alloudinning sehrli chirog‘i».

13mavzu. O‘zbek kompozitorlari ijodida balet janri. XX asr II- yarmi davridagi balet janrining rivojlanishi – G.Mushelning «Raqqosa», Ik.Akbarovning «Layli va Majnun», M.Leviyevning «Suxayl va Mehri», M.Ashrafiyning «Sevgi tumori» va «Sevgi va qilich», G.Mushel «Samarkand afsonasi», U.Musayevning «Xind poemasi» va «Tumaris».

14-mavzu. O‘zbek kino musiqasi.

O‘zbek kino musiqasi shakllanishi. «Nasriddin Buxoroda», «Toxir va Zuxra», «Ibn Sino», «Maftuningman», «mahallada duv-duv gap», «Sen yetim emassan», «Qaydasan, Zulfiya», «Toshkent – non shahri» va h.k.

15 - O‘zbek estrada musiqasi.

B.Zakirov va E.Salixov – o‘zbek estrada musiqasi asoschilari faoliyati. O‘zbek estrada ansambllari va xonandalar ijodida mahalliy folklor merosi va an‘analarining estrada turli stillari bilan uyg‘unlashuvdagi yutuqlar.

III. Seminar mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

1-mavzu. Ilk o‘rta asrlar san’ati. Borbadning o‘rta asr musiqa ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi.

2- mavzu. Somoniyilar davrida musiqiy hayot (IX-X asrlar).

Bu davrda musiqiy ilmining rivojlanishi, ajoyib olimlar, shoirlar, musiqachilar, (Abu Nasr Farobiy, Fbu Rayxon Beruniy, Ibn Sino) ning yashab ijod qilishi, saroy musiqachilar ijodida qasida janri.

3 -mazvu. O‘zbek xalqining shakllanishi davrida musiqiy madaniyati (XI-XV asrlar). Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”

Faxriddin Arroziyning musiqiy risolalarining yaratilishi.

4-mavzu. XVI-XIX asrlarda o‘zbek xalq musiqa madaniyati.

Musiqiy folklor.

5 -mavzu. O‘rta Osiyo musiqiy-nazariy merosi. A.Jomiyning musiqiy nazariyasi Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Urmaviy, yozgan musiqiy risolalari.

6 mavzu. XIX asr ohiri– XX asr boshlarida o‘zbek musiqa madaniyati.

Seminar mashg‘ulotlar multimedia qurulumalari bilan jihozlangan auditoriya-da bir akademik guruhga bir professoro‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda

munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

7- mavzu. Lokal uslublari.

O'zbek lokal uslublari: Toshkent- Fargona, Samarqand- Buhoro, Xorazm, Qashqadariy-Surxondariyo.

8-mavzu. Maqom turkumlari. Maqomlarning umumiy asoslari.

Maqomlarning umumiy asoslari Shashmaqom, uning cholg'u bo'limi, ashula bo'limi.

9-mavzu. O'zbek kompozitorlari ijodida vokal janri.

M.Burxonov va M.Ashrafiy ijodi. X. Nosirova, B. Davidova
B.Umidjonovning vokal-xo'r ijodi.

10 mavzu. O'zbek kompozitorlari ijodida cholg' musiqa janri.

Birinchi o'zbek oratoriya, kantata, xor uchun syuita janrlari.

Simfonik orkestri uchun asarlar –syuita, simfoniya, uvertyura.

Kamer cholg'u musiqasi janrlari – fortepiano uchun pyesalar, konsert, sonata, prelyudiya va fuga, cholg'u ansambllar. O'zbek xalq cholg'ular orkestri musiqasi.

11-mavzu. O'zbek kompozitorlari ijodida sahnaviy musiqa janrlari .

T.Jalilov, M.Leviyev, Ik.Akbarov, D.Zokirov, S.Jalil, Yu.Rajabiylarning musiqali dramalari.

12 - O'zbek opera janrining shakllanishi.

V.Uspenskiy «Farxod va Shirin» operasi. S. yudakov«Maysaraning ishi» operasi.

13mavzu. O'zbek kompozitorlari ijodida balet janri.

O'zbek baleti yaratilishig.Mushelning «Kashmir afsonasi» baleti.

14-mavzu. O'zbek kino musiqasi.

O'zbek kino musiqasi shakllanishi.

15 - O'zbek estrada musiqasi. O'zbek Estrada yulduzlari ijodi. B. Zokirov ijodi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

1. O'zbek xofizlari
2. O'zbek bastakorlari
3. O'zbekiston orkestrlari
4. V.Uspenskiy, R.Gliyer. A.Kozlovskiy, G.Mushel ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish
5. T.Sodikov, D.Zokirov, S.Yudakov ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish
6. M.Ashrafi, M.Leviyev, M.Burxonov, I.Akbarov ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish
7. M.Bafojev, M.Tojiyev, U.Musayev ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish
8. A.Mansurov, N.Narxo'jayev, D.Omonulayeva ijodiy faoliyatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish

9. E.Salixov va o'zbek estrada yulduzlari ijodiy faoliyatlari.
Asarlaridan parchalar ijro etish.

10. O'zbekiston musiqiy festevallari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan
prezentatsiya, videolar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

- o'zbek musiqasi tarixi, uning xalqlar musiqa va madaniyatining ajralmas qismi ekanligini; qadimgi, o'rta va yangi asrlarda o'zbek musiqashunosligining taraqqiyot tarixini; turli tarixiy davrlarda musiqa madaniyati xususiyatlarini, cholg'ularini, ular haqida tarixiy ma'lumotlarni; musiqiy ilim rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk allomalarni va ularning ilmiy izlanishlarining mazmunini; maqom va boshqa turkum asarlarni, o'zbek xalq ommaviy janrlari, vokal va cholg'u musiqasi, musiqiy-sahnaviy janrlar, taniqli bastakorlar ijodi haqida tasavvurga ega bo'lishi; **(bilim)**
- o'zbek musiqasidagi asosiy yo'nalishlar va uslublarni, janr va shakllarni, milliy kompozitorlik maktablarga xos xususiyatlar, ifodali vositalarni o'rganish, farqlash va ular haqida gapirib berish; kompozitorlarning ijodiy yo'lini jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy sharoiti bilan bog'lab unga baho bera olish; asar mazmunini yoritib tahlil eta olish; mashhur musiqiy asarlardan ayrim parchalarni ijro eta olish; asosiy, qo'shimcha o'quv, ilmiy va notali adabiyotlardan mustaqil foydalanish va amalda qo'llash;
- o'zbek musiqasi taraqqiyotidagi turli tarixiy davrlarda musiqa madaniyati xususiyatlarini, cholg'ularini farqlash, bastakor, kompozitorlarning yaratgan merosini o'rganish va ular xaqida gapirib berish; turli janrdagi asarlardan ayrim parchalarni ijro eta olish; asar mazmunini yoritib tahlil eta olish; asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan, notali adabiyotlardan mustaqil foydalanish va amalda qo'llashni bilishi va ulardan foydalana olishi; **(ko'nikma)**
- « o'zbek musiqa tarixi» faniga oid bilimlar va ko'nikmalarni amaliy musiqiy pedagogik faoliyatida tatbiq qilish, musiqiy-targ'ibot ishi va kontsert-ma'ruza faoliyatini tashkil qilishda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa

	va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test ishini topshirish. 6. VIII.Asosiy adabiyotlar 1. Madrimimov B.X O'zbek musiqa tarixi T 2018 https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/24/NamDU-ARM-7579-Ozbek_musiqa_tarixi.pdf 2. X Xamidov .O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyat tarixi. T 1996 3. A. Odilov. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi tarixi . T 1995. 4. I Akbarov Musiqa lug'ati. T 1992 5. O.K. Abdulayev Estirada va ommaviy tomoshalar tarixi. T 2015. 6. Matyokubov O. Maqomot. Toshkent, "Musiqa", 2004. elektron 7. Music & culture in eighteenth-century Europe : a source book. Chicago 1994 https://archive.org/search?query=date:1994 IX. Qo'shimcha adabiyotlar. 8. I.I.Axtamov.-Buxoro: "BUXORO DETERMINANT" MCHning Kamolot nashriyoti, 2022. 132-b. file:///C:/Users/User/Downloads/1755329699.pdf 9. Tursunova R.O'quv qo'llanma. - Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi, 2024. - 124 b. file:///C:/Users/User/Downloads/1740999287.pdf 10. Iroda Ganiyeva Sharq xalqlari musiqa tarixi Darslik .- Toshkent: « Navro'z » 2021-y.164 bet file:///C:/Users/User/Downloads/1747652302.pdf 11. Rajabov I. Maqom asoslari, Toshkent, «Ibn Sino» 1992.elektron 12. Mannopov S.O'zbek xalq musiqa madaniyati. T., «Yangi asr avlodi»2004. Axborot manbaalari ww.tdpu.uz www.ziyonet.uz www.edu.uz tdpu-intranet.Ped
	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
	Fan/modul uchun ma'sular: 1. S.S. Rasulova - QDU Musiqa ta'limi kafedrası dotsenti.
	Taqrizchi: 1. D. Nosirov - QDU Musiqa ta'limi kafedrası dotsenti. 2. Q. Fozilov – QDU Musiqa nazariyasi kafedrası katta o'qituvchisi

